



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OILA VA XOTIN-QIZLAR QO'MITASI
BUYRUQ

2023 - yil 31 03 29 -son

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining
2022-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat
qo'mitasi tuzilmasining Inson resurslari va komplayens nazorat bo'limi tarkibida
Komplayens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 16-son buyrug'iga
o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuriga o'tkazilib, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi shaklida tashkil etildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tuzilmasining Inson resurslari va komplayens nazorat bo'limi tarkibida Komplayens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 16-son buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida,-

BUYURAMAN:

1. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 29-apreldagi 16-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining markaziy apparati tuzilmasida Inson resurslari va komplayens nazorat bo'limi tarkibida Komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi tashkil etilganligi – *"Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi tarkibida Komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi tashkil etilsin"* deb qayta nomlansin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi tarkibidagi Komplayens nazorati bosh mutaxassisi to'g'risida Nizom – *"O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Inson resurslari va komplayens*

nazorati bo'limi tarkibidagi Komplayens nazorati bosh mutaxassisi to'g'risida Nizom” deb **1-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati – “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati” deb **2-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” deb **3-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizomi” deb **4-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari, mahallalardagi xotin-qizlar faollariga aloqa kanallar orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqish Reglamenti - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari, mahallalardagi xotin-qizlar faollariga aloqa kanallar orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqish Reglamenti” deb **5-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari, mahallalardagi xotin-qizlar faollarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari, mahallalardagi xotin-qizlar faollarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma” deb **6-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma” deb **7-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari va mahallalardagi xotin-qizlar faollarining korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti - “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari va mahallalardagi xotin-qizlar

faollarining korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” deb **8-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom - “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom” deb **9-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari va mahallalardagi xotin-qizlar faollarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti - “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari va mahallalardagi xotin-qizlar faollarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti” deb **10-ilovaga** muvofiq qayta tasdiqlansin.

3. Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasiga (X.Mamatqulova) mazkur buyruqni Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi markaziy apparati xodimlari va hududiy bo‘linmalarga 3 kun muddatda yetkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Inson resurslari va kompayens nazorat bo‘limi Kompayens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisiga (B.Saidqosimov):

mazkur buyruq talablariga muvofiq, yuqorida qayd etilgan ilovalarga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin;

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida buyruqqa kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilsin;

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais



O. Parpibayeva

Uccera mejeper
31.03.2023 *[Signature]*